



*Berdixanova Shaxida Nurlibayevna*

# MUSIQASHUNOSLIK METODOLOGIYASI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

Sh. N. Berdixanova

**MUSIQASHUNOSLIK METODOLOGIYASI**

(Uslubiy qo'llanma)

(O'zMMSI Badiiy, o'quv-uslubiy kengashi tomonidan 60211000 -  
San'atshunoslik (Musiqashunoslik) ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan  
talabalar uchun "Musiqashunoslik metodologiyasi" fanidan uslubiy  
qo'llanma sifatida tavsija etilgan)



UO'K: 78.071.1(575.1)(092)

KBK: 85.31G(50'zb)

B 48

Berdixanova Sh.N.

Musiqashunoslik metodologiyasi [Matn]: uslubiy qo'llanma/Sh.N.Berdixanova. – Toshkent, 2024. – 48 bet

Mazkur uslubiy qo'llanmada "Musiqashunoslik metodologiyasi" fanidan mashg'ulotlarni olib borishga oid amaliy tavsiya va ko'rsatmalar berilgan bo'lib, musiqa san'ati tarixinining asosiy masalalari bilan bir qatorda musiqashunoslikning hozirgi holati, undagi qarama-qarshiliklar va muammolarni ham yoritib berish bilan bir qatorda mazkur fan sohasining rivojlanish tendentsiyalarini aniqlash, talabalarning o'z mutaxassisligini o'zlashtirish jarayonida ijodiy yondashuvni rivojlantirishda muayyan ravishda xizmat qiladi.

#### Texnik muharrir:

A.Sunnatillayev, O'zMMSI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

#### Taqribchilar:

B.Matyakubov, O'zbekiston Davlat konservatoriysi professori v.b., san'atshunoslik fanlari nomzodi, Ardahan (Turkiya) universiteti Doktori, Professor  
L. Djo'rayeva, Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy musiqa san'at instituti "O'zbek maqomi tarixi va nazariyasi" kafedrasи katta o'qituvchisi, san'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

ISBN 978-9910-789-65-6

© Sh. N. Berdixanova, 2024

## Mundarija

Kirish.....	4
Musiqashunoslik metodologiyasining umumiy masalalari....	6
Musiqiy asarlarni tahlil qilishning nazariy usullari .....	12
Musiqiy jarayonni tarixiy o'rghanish usullari.....	18
Tadqiqotning ilmiy usullari.....	24
Ilmiy ishning tarkibi. Ilmiy materiallarni taqdim etish usullari.....	31
Glossariy.....	42
Adabiyotlar ro'yxati .....	47

## Kirish

Yangi O'zbekiston davrida har tomonlama rivojlangan, yuksak ma'nnaviyatlari, ilmli va shu bilan bir qatorda o'z kasbining yetuk mutaxxasislarni tarbiyalash barcha sohalar qatori musiqa san'atining ham muhim vazifalaridandir.

Musiqashunoslik sohasidagi ijodiy ish nafaqat uning tarixi, tuzilishi va asosiy ilmiy kategoriyalarini yetarlicha chuqur va tizimli tadqiq etishni, balki asosiy tadqiqot usullarini ham egallashni nazarda tutadi. Bu esa musiqashunoslik ta'lim yo'nalishlari o'quv rejasiga maxsus fan sifatida – "Musiqashunoslik metodologiyasi"ni kiritishni taqozo etadi. Ushbu fanning vazifalari xilma-xil bo'lib, uning doirasida talabalarga musiqashunoslik fanining musiqa madaniyatidagi o'rni va ahamiyati, mazkur fan sohasining predmeti, maqsadi, uning asosiy kategoriyalari va mantiqiy tuzilishi bilan tanishtirishni nazarda tutadi.

**Fanni o'qitishdan maqsad** – "Musiqashunoslik metodologiyasi" fani san'atshunoslik (musiqashunoslik) ta'lim yo'nalishi talabalari uchun muhim fanlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ushbu fan ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va amalga oshirish qonuniyatlar, tamoyillar, tushunchalar, terminologiyasi, mazmuni, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bilimlarni o'rganish, musiqashunoslik tarixini tushunish, uning tuzilishi, asosiy ilmiy toifalari, asosiy tadqiqot usullarini o'zlashtirishdan iborat. Musiqashunoslik metodologiyasi fani umumkasbiy, ixtisoslik fanlari bilan o'zaro uslubiy jihatlar bilan uzviy bog'liqlik kasb etadi.

**Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar** – bu bo'lajak musiqashunosning fikrlash, mustaqil ravishda taqqoslash, turli nuqtai nazarlarni tahlil qila olish, o'z fikrini aniq bayon eta olish va ilmiy asoslash, professional himoya qilish qobiliyatini namoyon etish kabi ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat.

## Talabalar uchun talablar

- musiqashunoslikning musiqiy madaniyatdagi o'rni va funksiyalarini bilish;
- jamiyat, gumanitar fanlar tizimida, uning asosiy toifalari va mantiqiy tuzilishini bilish;
- musiqashunoslikning hozirgi holati, undagi ziddiyatlari va muammolar, ushbu fan sohasining rivojlanish tendensiyalarini o'rganish.

Mazkur uslubiy qo'llanmada "Musiqashunoslik metodologiyasi" fan dasturida belgilangan – "Musiqashunoslik metodologiyasining umumiy masalalari", "Musiqiy asarlarni tahlil qilishning nazariy usullari", "Musiqiy jarayonni tarixiy o'rganish usullari", "Tadqiqotning ilmiy usullari", "Ilmiy ishning tarkibi. Ilmiy materiallarni taqdim etish usullari" kabi mavzular o'rin olgan bo'lib, ushbu fanni o'zlashtirish jarayonida talabalarning musiqashunoslik metodologiyasiga oid bilim va ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan mavzular yuzasidan ma'lumotlar muhtasar bayon etilgan.

## I. Musiqashunoslik metodologiyasining umumiy masalalari.

REJA:

### 1. “Metod” va “metodologiya” tushunchalar.

### 2. Musiqashunoslik metodologiyasining umumiy tavslifi.

Metod (yunon. *methods* — usul) keng ma’noda yo’l, ijodiy faoliyatning har qanday shakli kabi ma’nolarni anglatadi. Metodologiya tushunchasi ikki asosiy mazmunga ega - muayyan faoliyatda qo’llaniladigan ma’lum usullar tizimi (fanda, siyosatda, san’atda va h.k.); tizim haqidagi ta’limot yoki metod nazariyasi. Metod u yoki bu shaklda ma’lum qoida, tartib, usul, harakat va bilim mezonlarining yig’indisi hamdir.

*Metodologiya* - tamoyillar, talablar tizimi bo’lib, subyektni aniq vazifani bajarishga, muayyan ilm-fan sohasida aniq natijalarga erishish sari yo’naltiradi. U tadqiqot jarayonida vaqt, kuchni tejaydi, maqsadga eng yaqin va oson yo’l bilan yetishga yordam beradi.

Hozirgi davrda, metodologiya faqat ilmiy nazariy farazlar bilan cheklanib qolmaganligini va u bevosita amaliyotda ham o’z ifodasini topib kelayotganligining guvohi bo’lishimiz mumkin.

*Metodologiya* faqat metodlarni emas, balki tadqiqotni ta’minlovchi boshqa vositalarni ham o’rganadi. Tamoyil, qoida va ko’rsatmalar, shuningdek, kategoriya hamda tushunchalar shu kabi vositalar jumlasidandir. Doimiy rivojlanish, beqaror dunyo sharoitlarida voqelikni metodologik o’zlashtirishning o’ziga xos

vositalarini ajratish fan rivojlanishining “postnoklassik” (noan’anaviy), deb nomlangan hozirgi bosqichida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Fan metodologiyasi uning tuzilshi, taraqqiyoti, ilmiy tadqiqot vositalari va usullari, uning natijalarini asoslash yo’llari, bilimni tajribaga tatbiq qilish mexanizmlari va shakllarini o’rganadi. Shuningdek, metodologiya metodlar yig’indisi va faoliyat turi haqidagi ta’limotdir.

A.Soxorning fikriga ko’ra, “... to‘g’ri metodologiya har qanday tadqiqot uchun kafolat va zarur shartdir”. Darhaqiqat, biron bir fan metodologik asossiz rivojlnana olmaydi, chunki metodologiya tadqiqotning asosi, skeletidir, uning atrofida u yoki bu muammoning yechimi “ochiladi”.

Musiqashunoslik metodologiyasi - ilmiy va badiiy ijodkorlikni birlashtirgan va musiqiy san’at haqidagi gumanitar, ijtimoiy bilimlar tizimini ifodalovchi fandir. Musiqiy ilm-fan sohasida odatda qabul qilingan ushbu ta’rif bilan bog’liq holda musiqashunoslik yoki *metamusiqashunoslik* (*metamusikologiya*) metodologiyasi K.Zenkin ta’rifiga asosan tor va keng ma’nolarda ko’rib chiqilishi mumkin:

- birinchi navbatda, musiqiy obyektlar va predmetlarni tadqiq qilishning ayrim usullari, toifalari, tamoyillarini o’rganish sifatida;
- ikkinchidan, o’ziga xos uslubiy apparatga ega bo’lgan musiqa ilmiga oid bilimlarni kompleks tizimli tashkil etish idroki sifatida (unga faqat musiqiy kategoriylar bilan bir qatorda umumiylilik kategoriylar, tamoyillar, uslublar, vositalar kiradi);

- uchinchidan, musiqa fanining o‘zini o‘zi anglashi (tahlili) sifatida, ya’ni uning mohiyatini, semantik barqarorligini (konstantasini<sup>1</sup>) aniqlash, shuningdek, uning zamon va makon rivojlanishida yuzaga keladigan qonuniyatlarni, yo‘nalishlarni, tendensiyalarni, jarayonlarni, shu jumladan boshqa ilmiy sohalar bilan sintezini, bunday jarayonlarning mumkin bo‘lgan bog‘liqliklarini aniqlash, ularni boshqarish va o‘rganishdan iborat.

Musiqashunoslik metodologiyasining bunday keng va ko‘p qirrali tushunchasi V.Medushevskiyning g‘oyasida ham o‘z ifodasini topgan, u ushbu sohani musiqiy ilm-fan deb talqin qiladi hamda ajralmas tizimli metodologik shakllanish (tuzilish) deb tushunadi, musiqashunoslikning har bir tarmog‘ini o‘ziga xos tarkib bilan to‘ldirish uning muhim xususiyatlarini ochib beradi deb hisoblaydi.

Ushbu fanning yetakchi sohalari - tarixiy va nazariy musiqashunoslik bitta asosiy obyektga - muallif uslubining o‘ziga xos xususiyatiga va pirovardida musiqiy asarga qaratilgan. A.Butskiyning ta’rifiga ko‘ra, “muhim bir nuqtada bo‘lgani kabi, musiqa sohasidagi har qanday amaliy faoliyatning yo‘llarida, har qanday musiqa ilmi kesishgan”. Ushbu yagona obyekt turli nuqtai nazardan, masalan, vaqtinchalik, tarixiy kontekstda (obyektning jamiyatda mavjudligi) yoki chuqr, analitik (obyektning tuzilishi, uni tashkil etish mantig‘i) yondashuvida tekshiriladi. Hozirgi kunga kelib, musiqa fanining yetakchi tarmoqlari, ularning bir-biriga kirib

<sup>1</sup> Konstanta – (lot. *Constans*) doimiy, o‘zgarmas

borishi tobora kengayib bormoqda, ushbu jarayon umumiyl mavzular, muammolar, uslubiy o‘rganish vositalarining o‘ziga xosligi bilan bog‘liqdir. Bugungi kunda musiqiy tadqiqotlar mavzusi xilma-xil, global va chuqr, obrazli qilib aytganda “golografik” tus olmoqda.

Musiqiy asarni o‘rganish jarayoni tasodifan paydo bo‘lmagan ko‘p qirrali rivojlanishning ikkita asosiy omili ta’siri bilan izohlanadi. Bir tomondan, bu asosiy obyektni chuqr o‘rganish bilan ifoda etilgan musiqa haqidagi bilimlarning farqlanishi, ikkinchidan esa, ularning integratsiyasi.

Musiqa fanida XX asrning so‘nggi chorak qismida tashkil etilgan estetika, semiotika (semiologiya), sotsiologiya, psixologiya, akustika bilan samarali aloqalari, shuningdek tizimli-strukturaviy, kompleks, germenevtik, sinergetik, axborot, kulturologik va albatta, uslubiy yondashuvlar muhim ahamiyatga ega<sup>2</sup>. Ularning barchasi tabiiy ravishda, an‘anaviy, asosiy usul va uslublarga tayangan holda musiqashunoslik sohasida samarali rivojlanib kelmoqda. Ushbu turdagи aloqalarni o‘rnatishi musiqa nazariyasi va tarixi, madaniyatshunoslik va san‘atning boshqa sohalarida hamroh bo‘lib musiqiy madaniyat, san‘at, fan o‘rganilishida yirikroq obyektlarning shakllanishida, shu bilan bir qatorda, musiqiy muammolarning doirasi sezilarli darajada kengayishida asosiy poydevor vazifasini bajarib kelmoqda. Chunonchi integratsiya jarayonlari ilmiy bilimlar

<sup>2</sup> Ushbu yondashuvlarning ko‘philigining kontseptual va mazmunli tomoni N. Gulyanitskayaning “Musiqa ilmi metodikasi” nomli tadqiqotida batasfil yoritilgan

va amaliy faoliyat sohalarini to‘ldiradi va yangilaydi, bu esa musiqashunoslik doirasida faoliyat ko‘rsatadigan mutaxassisliklar hamda zamonaviy musiqashunoslikni yangi yo‘nalish va qarashlar bilan oziqlantiradi.

Musiqashunos-metodistning qiziqish doirasi to‘rtta uslubiy obyektni o‘rganishga qaratilgan:

- musiqashunoslik (fan);
- musiqashunoslikning uslubiy apparati;
- musiqiy faoliyat va uning mahsuloti;
- musiqa nazariyasi.

Ilm-fan musiqashunoslik sohasida nihoyatda keng tadqiqotlar, bilimlarining umumiyligi ilmiy (falsafiy) va maxsus ilmiy (musiqiy) darajalarini qamrab oluvchi muammolarida aks etadi. Umumiyligi ilmiy darajadagi tematik shakllanishlar orasida musiqa fanining rivojlanish xususiyatlari va musiqiy asoslari, musiqashunoslikning tuzilishi, musiqa faoliyatining turlari va o‘ziga xosligi, uning ilmiy va badiiy usullari, tamoyillari, toifalari, asosiy uslubiy funksiyalar, empirik va nazariy konstantalari, ilmiy tushunchalar rivojlanishining uzluksizligi, nazariyalarning aksiologik tahlili, nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘z ichiga qamrab oladi.

Maxsus ilmiy darajadagi muammolar ko‘p qirralidir, masalan: muayyan fanlarni o‘rganish metodikasi yoki tarixshunoslik va nazariy musiqashunoslik (garmoniya, polifoniya, musiqiy asarlar tahlili), folklorshunoslik, musiqiy tanqid, akustika va boshqa ko‘plab fanlarni o‘rganish usullari shular jumlasidandir.

Musiqashunoslik metodologiyasida biz to‘rtta asosiy funksiyalarni amalgalash oshirdik, ularni shartli ravishda menejment, prognostik, analitik va aksiologik deb atadik, shuning uchun musiqashunoslik nazariyasini o‘rganayotganda metodist analistik va aksiologik funksiyalarni bajarishi va o‘rganilayotgan nazariyaning kelajakdagi rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, prognostik va boshqaruv funksiyalarini amalgalash oshirishi mumkin. Albatta, biz bu yerda umuman boshqarib bo‘lmaydigan badiiy ijod jarayonlari haqida emas, balki musiqa universitetlarining ilmiy ish rejalarini tuzish, konferensiyalar o‘tkazish, talabalar, aspirantlar, abituriyentlarning ilmiy-tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish, shu kabi mavzular ishlab chiqish shaklida musiqashunoslikni boshqarish masalalriga qaratilganligini ta’kidlab o‘tish joiz.

V. Medushevskiyning fikri bilan aytganda: “...musiqashunoslik umumiyligi inson tafakkurining uslubi va mazmunini qanchalik to‘liq o‘zlashtirsa, uning professional usuli shunchalik boy, ko‘p qirrali va samarali bo‘ladi”.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Metod tushunchasini izohlab bering
2. Metod va metodologiya ta’rifi
3. Musiqashunoslik metodologiyasining asosiy funksiyalarini sanab o‘ting

## **II. Musiqiy asarlarni tahlil qilishning nazariy uslullari**

**REJA:**

### **1. Nazariy musiqashunoslik ta’rifi**

### **2. Tahlil qilishning nazariy usullari**

Musiqi ilmi tarixiy va nazariy toifalarga ajiratiladi. Bunday ajiratish shartli ravishda qabul qilingan, sababi u yoki bu voqelikni tadqiq etish, o’rganishda musiqi tarixidagi jarayonlar, musiqiy nazariy tahlillarda berilgan ma’lumotlariga asoslanib kelingan. Shu bilan birga, nazariy musiqaning xulosalari o’rganilayotgan hodisalarning tarixiy shartliliginini hisobga olmasdan turib, yetarli darajada to’liq va ilmiy asoslarga ega bo’lish mumkin emas.

Musiqi tarixi taraqqiyoti jarayonida musiqiy estetika, ba’zan esa musiqi falsafasi alohida soha bo’lib ajiralib turgan. Hozirgi davrda, zamonaviy musiqashunoslik yo’nalishi ancha murakkab tarkibga ega. Musiqi nazariyasi bilan bog’liq har bir hodisa hozirgi kunda musiqi tarixi bilan uzviy bog’liqlikda bo’lib, tarixiy bo’limgan ta’limotlarsiz tasavvur qilinmaydi.

Biroq musiqashunoslikning nazariy va tarixiy kabi ikki tarmoqqa bo’linishi haqqoniyidir, boisi qo’yilgan vazifalarga qarab, tadqiqotchining diqqat-e’tibori musiqaning yo tarixiy yoki nazariy jabhasini tafakkur etishiga qaratiladi va bu ulardan birining asosiy ekanligini belgilab beradi<sup>3</sup>.

Hozirgi kunda musiqi sotsiologiyasi, manbashunoslik, etnomusiqashunoslik, musiqiy semiotika va boshqa sohalar shakillamoqda.

Nazariy musiqashunoslik – musiqi san’ati uchun xos bo’lgan asosiy qonuniyatlar xususida tasavvurga yetaklovchi ilmiy bilimlar shakli sifatida tushiniladi.

Nazariy musiqashunoslik har doim aniq usullar bilan chambarchas bog’liq bo’lgan va bevosita tarixiy jarayonlarga asoslanib, o’zini mukammalligiga erishgan aniq fanlar bilan bog’liqliqda rivojlanganligini guvohi bo’lishimiz mumkin.

G’arb klassik musiqashunosligining asoslari zamonaviy musiqaning nazariy g’oyalarini shakllanishida poydevor vazifasini bajarib kelgan. Ushbu jarayonda matematik va mantiqiy fikrlashga yondashilgan holda izchil tizimlashtirish usullari alohida amiyat kasb etganligini guvohi bo’lishimiz mumkin. Masalan: G.Rimanning - uyg’unlik, shakl va metroritm nazariyasi, milliy musiqashunoslikning taniqli klassiklari nazariyasi — S.I.Taneyevning polifoniya nazariyasi, B.Yavorskiyning lad ritmi, ohanglar nazariyasi, G.Konyusning metrotektonizm, Yu.Tyulinning garmoniyadagi funksiyalarining o’zgaruvchanligi va shaklning o’zgaruvchanlik nazariyasi, L.Mazel, V.Sukkermanlarning uyg’unlik va shakl nazariyasi, Yu.Xolopov, V.Xolopovaning ritmi, shakli va musiqiy mazmuni, shuningdek, qator boshqa nazariyalar shular jumlasidandir.

<sup>3</sup> Musiqashunoslik asoslari: o’quv qo’llanma / F.Muxtarova, S.Begmatov, N.Xashimova. – Toshkent: “Musiqi”, 2018. – 5 b.

Nazariy musiqashunoslik usullari gumanitar fanlar bilan bir qatorda aniq fanlarda qo'llaniladigan usullarga asoslanadi. Aniq fanlar usullari bilan bog'lash jarayoni, o'z davrida G.Rimanni akustik, tabiiy hodisalarda uyg'unlik sabablarini izlashda qo'llanilgan. Natijada, Rimani majorakkordlarining tuzilishini oberton seriyasidan olib chiqadi, tovushning pasayib birish jarayonini asoslash uchunakkordlar untertonlarning dalillari bilan tasdiqlanmagan gipoteza tomonidan ishlab chiqilgan. Paradoksal ravishda, musiqa nazariyasining matematik va tabiiy ilmiy metodologiyasiga rioya qilish istagi oxir-oqibat mifologik usullar bilan hamohang ravishda olib borilishiga sabab bo'lgan.

Buning natijasida — gumanitar, germenevtik<sup>4</sup>, tarixiy usullar sifatida musiqashunoslik metodologiyasida umumiylanfan usullaridan foydalanish jarayonlarini shakllanishiga hamda barcha musiqiy nazariy qarashlar tahliliy uslubga asoslanishiga olib kelgan.

Har qanday nazariya ratsional<sup>5</sup> bilim manbaiga asoslangan bo'lib, ushbu bosqichda tadqiqot "nima uchun" degan savolga javob berishga qaratilishi lozim. Musiqiy asarlarni tahlil qilishning nazariy usullari nazariy bilimlar bilan bog'langan va shartlangan bo'lib, ularning xususiyatlari, birinchi navbatda: a) umumiylilik; b) mazmunli abstraktsiya; v) tizimlashtirishdan iborat. Bunda o'rganilayotgan u yoki bu hodisaning mohiyati to'liq ochib beriladi.

<sup>4</sup> Germenevtika — talqin qilish sharplash tamoyili. G'arbiy Yevropada 18-asrda fanga kirib kelgan germenevtika metodologiyasi hozirda barcha jamiyatlarning boshqaruv bo'g'inlarida ham qo'llaniladi.

<sup>5</sup> Ratsionalizm — (lotin. rationalis-aqli (ongli), asosli, maqsadga muvofiq) bilim nazariyasining yo'nalishi, aqlni hal qiluvchi bilim manbai tushunchasi sifatida qaraladi.

Masalan, A.A.Alshvang musiqa san'atining janr mohiyatini ochib berar ekan, "janr orqali umumlashtirish" nazariy usulini qo'llagan, shu asosda ushbu uslulning tabiat, tuzilishi va xususiyatlarini ochib bergan. Unga ko'ra tadqiq etish jarayoni umumiyyadan xususiyga yo'naltirilishi maqsadga muvofiqdir. Tadqiqotlarda umumiyyadan xususiyga harakatlanish jarayonining uchta bosqichini ajratish mumkin:

1. Tadqiqot gipotezasini qurish (taxminiy bilish mexanizmini shakllantirish)
2. janr-intonatsion yondashuv asosida ilmiy bilish nazariyasini tanlash (B.V.Asafyevning ekstrapolyatsiya qilingan intonatsiya nazariyasi bilan birgalikda)
3. Musiqiy pedagogik kontseptsiyani qo'llash va amaliyotga tadbiq etish

Su o'rinda, qarama-qarshi yondashuvni ham qo'llash mumkin: zarur empirik faktlarni tanlash, to'plash, o'rganilayotgan muammo bo'yicha ma'lumotlardan ularni umumlashtirish va pirovardida uslubiy tahlilning sifat natijasini aks ettiradigan nazariy xulosaga kelish.

Tahlil (yunoncha *analysis* — o'rganish, joy-joyiga qo'yish) — bu umumilmiy metodlardan biri bo'lib, u tizim sifatida ko'rib chiqilayotgan tadqiqot obyektiida aniqlanadi, shuningdek tadqiq qilinayotgan jarayon yoki hodisaning maxsus va teran mustaqil o'rganilishi uchun tanlangan obyektning tarkibiy qismlariga bo'linishini nazarda tutadi.

Sintez (yunoncha *synthesis* — bog'lanish, birikma, kompozitsiya), obyektning turli elementlari, tomonlarini bir butunlikka (tizimga) bog'lash, amaliy va nazaiy o'rGANISH jarayonida ham amalga oshiriladi.

*Tahlil* va *sintez dialektikasi* musiqiy voqelik hodisa va jarayonlarini o'rGANISHGA qaratilgan nazariy metodni o'z ichiga olgan uslubiy tahlilning muhim belgisidir. Ma'lumki, *tahlil* mantiqiy fikrlash shakli sifatida doimo o'zining qarama-qarshi tomoni - *sintez* bilan bevosita hamohanglikda bo'ladi. Bu shakllar nazariy tahlil qilish jarayonida yagona yo'nalishni ifodalaydi, chunki tahlil va sintez (masalan, induksiya va deduksiya kabi) vaqt o'tishi bilan parchalanib ketadigan ikki xil jarayon emas, balki bir xil nazariy tafakkur jarayoni bo'lib, nazariy tadqiqotlarning muhim usuli hisoblanadi.

Yana bir nazariy usul - *modellashtirish*. Modellashtirish musiqiy jarayonning turli tomonlarini, aloqalarini, funktsiyalarini va ishlashi uchun sharoitlarni takrorlaydigan elementlar tizimini yaratishni o'z ichiga oladi.

*Tarkibiy-tizimli* yondashuv ham nazariy metod sifatida, birinchi navbatda, falsafiy, umumilmiy va alohida ilmiy, texnologik yondashuvlarning birligi asosida amalga oshiriladi. Aynan ushbu nazariy metodning tizimliligi o'rGANILAYOTGAN obyektni yaxlit tasavvur etishni, muayyan muammoga aniqlik kiritish, olingen natijalarning dalillari va obyektivligini nazarda tutadi.

Tahlil usullaridan foydalanish tajribasi shuni ko'rsatadiki, nazariy usullar orasida, ayniqsa, so'ngi yillardra, fan va san'atning turdosh sohalaridan olingen nazariy bilimlarga oid usullarni talqin etishi tobora ko'proq ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nazariy musiqashunoslik atamasiga tarif berib o'ting
2. G'arb milliy musiqashunoslarning ishlab chiqilgan nazariyalarini aytib o'ting.
3. Umumiyyadan xususiyga harakatlanish jarayonlari qanday bosqichlardan iborat?
4. Sintezlash usulining mohiyati aytib o'ting
5. Tarkibiy-tizimli yondoshuv usuli nima?



### **III. Musiqiy jarayonni tarixiy o‘rganish usullari**

**REJA:**

#### **1. Tarixiy musiqashunoslik**

#### **2. Tarixiy metodologik yondoshuvlar**

Musiqasunoslik sohalari: musiqa nazariyasi, musiqa tarixi, musiqa etnografiyasi, musiqa tanqidi kabi yo‘nalishlardan tashkil topgan. O‘z navbatida *tarixiy musiqa* - musiqa madaniyat rivojlanishining yaxlit manzarasini uning turli jabhalari bilan chambarchas bog‘liqliklikda va jamiyat turmush sharoitidagi o‘zgarishlarga bog‘liq holda qayta yaratish kabi maslalarni qamrab olgan.

Tarixiy musiqashunoslik barcha zamon va xalqlar musiqa madaniyati tarixini qamrab oluvchi, insoniyat jamiyatida amalgalashirilayotgan taraqqiyot bosqichlarining umumiy qonuniyatlarini yoritib beruvchi musiqaning umumiy tarixi bilan bir qatorda barcha xalqlar musiqasi tarixini aks ettiradi. Musiqashunoslik sohasida quyidagi tarixiy yondashuv usullari shakllangan:

*Tizimli yondashuv*: “Musiqa madaniyatini dinamik rivojlanayotgan madaniyat sifatida tushunish tizimlari (yaxlitlik, tuzilma, birlashtirilgan jarayon) va quyi tizimlardan biri sifatida ijtimoiy rivojlanish. Turli soha va musiqa qatlamlarini bir-biri va jamiyatning ma’naviy hayoti bilan madaniyat aloqalarini uzviy yoritish madaniyat, ularning bir-biri bilan va jamiyatning ma’naviy hayoti bilan aloqasi.

*Uslubiy yondashuv* - musiqadagi uslub tarixan shakllangan badiiy tizim sifatida tasvirlash va mos ifodalash texnikasi. Ko‘p darajali uslubni farqlash. Individual muallifning uslubi (ideostil), badiiy harakat uslubi, davrlar uslubi (barokko, klassitsizm, romantizm, impressionizm, ekspressionizm, konstruktivizm va boshqalar), mintaqaviy va milliy musiqa uslublari kabi jabhalarni o‘rganilishini nazarda tutadi.

*Madaniy yondashuv* – musiqa madaniyatning boshqa sohalar bilan aloqasini nazarda tutadi, ya’ni: musiqa va jamiyat, ijtimoiy psixologiya musiqa, musiqiy san’at va axloq, musiqa va din o‘rtasidagi munosabatlar, funksional maqsadlarda musiqadan foydalanish - tibbiyot, sport va pedagogika sohasida, musiqa va texnologiya, musiqa va ilm-fan, musiqa san’atining falsafiy jihat, musiqadagi ijtimoiy ongning mafkuraviy jihatlari va h.k.

*Musiqiy etnografiya* - xalq musiqa ijodini o‘rganuvchi tarixiy musiqashunoslik sohasi. Musiqiy etnografiyaning predmetlari: xalq qo‘sиг‘i ijodi, cholg‘u musiqasi, xalq musiqa hayoti ularning tarixiy rivojlanish jarayonlari, tarixiy va milliy tadqiqotlar badiiy uslublar, ularning geografik taqsimoti, dunyo xalqlari o‘rtasidagi madaniy-tarixiy munosabatlar (“qiyosiy musiqashunoslik”) kabi yondashuvlardan iborat. Musiqiy etnografiya o‘z navbatida quyidagi metodlarni qamrab olgan: bevosita kuzatish va hujjatli tasvirlash, xalq namunalarini notalashtirish, ovozli audio va video yozuvlarini to‘plash, xalq musiqasining lingvistik tizimlarini nazariy tahlil qilish, xalq cholg‘u asboblarini o‘rganish.

*Qiyosiy tarixiy usul* - musiqashunoslikdagi tarixiy tadqiqot natijalarini qiyosiy o'rganish jarayonida umumiy va maxsus musiqiy-tarixiy manbalarni, hodisalarni rivojlanish bosqichlari va tendensiyalari aniqlash imkonini beradi. Qiyosiy tarixiy metodning shakllari:

- tarixiy-tipologik taqqoslash (kelib chiqishi va rivojlanishi tomonidan bir xil sharoitlarga ega bo'lgan obyektlarning taqqoslama tahlil etilishi);
- tarixiy-genetik taqqoslash (genetik munosabatlarning o'rnatilishi, badiiy hodisalarning - bir manbadan kelib chiqishi).

*Faoliyatli yondashuv* - musiqiy faoliyatni amalga oshirish shakli sifatida musiqa madaniyati, uning ruhiy xarakteri va tashqi moddiy ko'rinishlari, individual-shaxsiy musiqiy faoliyatning asosiy shakllarini tabiat va uning ijtimoiy ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

*Sinkretik yondashuv*: "qiyoslab bo'lmaydigan" tasvirlarning kombinatsiyasi yoki uyg'unligi fikrlash va qarashlar, yoki turli xil faoliyat turlarini nazarda tutadi.

*Germenevtika yondashuv* - G'arbiy Yevropada XVIII-asrda fanga kirib kelgan germenevtika metodologiyasi hozirda barcha jamiyatlarning boshqaruv bo'g'inlarida ham qo'llaniladi. Bu istiloh avvalda muqaddas diniy kitoblarning matnini o'rganar va tushuntirar edi. Germenevtika - bu "talqin qilish san'ati" bo'lib,

musiqiy germenevtika nemis musiqa nazariyasi tadqiqotchisi Hermann Kretschmar tomonidan 1902 yili kiritilgan.

*Semiotik yondashuv* - (yun. semiotikos — belgilar haqidagi ta'lilot), semiologiya —

1) axborot, ma'lumotlarni saqlash va uzatish uchun xizmat qiladigan belgilarni va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadigan fan sohasi;

2) u yoki bu obyektning bir ma'nodagi Semiotik nuqtai nazaridan o'rganiladigan tizimi (mas, muayyan film yoki badiiy asar semiotikasi, muayyan xalqdagi muomala-murojaat semiotikasi va boshqalar). Semiotikaning "belgilarni haqidagi fan" sifatida umumiy qoidalari, xususiyatlari dastlab amerikalik mantiqshunos Ch.S.Pirs va shvetsariyalik tilshunos F.de Sossyur asarlarida bir vaqtning o'zida va mustaqil ravishda qayd etilgan. Ushbu tushuncha uchun Ch.S.Pirs "Semiotika" terminini, F.de Sossyur esa "semiologiya" terminini, qo'llagan. Semiotika g'oyasi keyinchalik amerikalik faylasuf Ch.U.Morris tomonidan tartibga solinib rivojlantirildi. Bir qancha yevropa va rus olimlari ham Semiotikaning rivojiga hissa qo'shganlar. Falsafiy fanlardan hisoblanadigan umumiy S. va maxsus semiotik fanlar, jumladan, til Semiotikasi (glottosemiotika yoki lingvosemiotika) farqlanadi. Semiotika taraqqiyoti funksional struktur tilshunoslik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liqdir.

Semiotika muammolarini ishlab chiqish matematik mantiq, matematik lingvistika, informatika va boshqa uchun ham muhim ahamiyatga ega<sup>6</sup>.

*Semantik tahlil* - musiqiy semantika maqsadi aniq ma'nolarni topishga yo'naltirilgan va tabiatiga ko'ra ilmiy aniqlikga da'vo qiladi. Musiqiy semantika

adabiy matn va musiqa nazariyasi atamalarini kontseptual qamroviga asoslanadi. Musiqiy matnda bu -musiqiy-ritorik figuralar tahlili jarayoniga asoslanadi (xromatik harakatlар, ko'tarilish va tushish harakatlari, ma'lum bir pauza turi va boshqalar. - taxminan 50 ga yaqin turlarini sanab o'tish mumkin).

*Sotsiologik yondashuv* - musiqa madaniyatini ijtimoiy quyi tizim sifatida ko'rib chiqish. Musiqa madaniyati holatining turli xil ijtimoiy sharoitlari tarixiy bosqichlar va dunyoning turli mintaqalarida ijtimoiy hayot uning faoliyat ko'rsatish va rivojlanish mexanizmlari tizimida o'rghanishni nazarda tutadi.

Musiqiy sotsiologik tadqiqotning asosiy vazifalari quyidagicha:

- a) musiqa muassasalari faoliyati, jamiyat musiqiy hayotining tuzilishi, shakllari va turlarini ko'rib chiqish;
- b) musiqiy muloqot ishtirokchilari, ijtimoiy mexanizmlar tinglovlarning didi va qadriyatlarning yo'nalishlarini shakllantirishga ta'sir qilish; bastakor va ijrochilarning ijodiy

<sup>6</sup> Stepanov Yu. S. Semiotika, M., 1971.

pozitsiyalari, turli guruhlarning musiqiy xatti-harakatlarini o'rghanish;

v) musiqa targ'iboti jarayonida nazariy asoslarni va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

d) musiqa san'ati rivojini boshqarishning optimal usullarini izlash.

*Sinergetik yondashuv*: Vakillik qiluvchi fanlararo yondashuv tamoyillar majmui bo'lib, ularning asosi obyektlarni o'z-o'zini tashkil etuvchi tizimlar sifatida ko'rib chiqishdan iborat.

#### **Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Tarixiy musiqashunoslikga oid metodlarning asosiy mohiyati nimadan ibotar?
2. Musiqiy sotsiologik tadqiqotning asosiy vazifalari qanday?
3. Semiotik yondashuv usulining asosiy mohiyati nimadan iborat?
4. Qoyosiy-tarixiy metodning shakllari qanday?

## **IV. Tadqiqotning ilmiy usullari**

**REJA:**

### **1. Zamonaviy fanlararo ilmiy usullar**

### **2. Zamonaviy ilm-fan metodlaridagi innovatsiyalar**

Zamonaviy fanda barcha ilmiy metodlar umumiylig darajasi va qo'llanilishiga ko'ra beshta asosiy guruhga bo'linadi:

*I. Falsafiy usullar*, ular orasida eng qadimiyлари dialektik va metafizik

tadqiqot metodlaridan iborat. Analitik, intuitiv, fenomenologik, germenevтиk kabi usullar ham shular jumlasidandir.

*II. Umumiylar yondashuvlar va tadqiqot usullari*. XX asr fan taraqqiyotida

keng ishlab chiqilgan metodlar majmui bo'lib, falsafa, maxsus fanlarning fundamental nazariy va metodologik qoidalarini qamrab olgan o'ziga xos oraliq metodologiyani ifodalaydi. Umum ilmiy tushunchalarga axborot, model, izomorfizm (yunoncha *isos* — bir xil va *morfo* — shakl), struktura, funksiya, sistema, element va boshqalar kiritiladi.

*III. Hususiy ilmiy usullar* – ya'ni materiya harakatining ma'lum bir asosiy

shakliga mos keladigan fanning u yoki bu sohasida qo'llaniladigan usullar, bilim tamoyillari, tadqiqot usullari va jarayonlari majmuidir. Bular mexanika, fizika, kimyo, biologiya va gumanitar (ijtimoiy) fanlar usullaridir.

*IV. Intizomiy (distsiplinar) usullar*, ya'ni fanning har qanday sohasiga

kiruvchi yoki fanlar chorrahasida paydo bo'lgan ma'lum bir fanda qo'llaniladigan texnikalar tizimlari. Har bir fundamental fan, biz allaqachon aniqlaganimizdek, o'ziga xos mavzuga va o'ziga xos tadqiqot usullariga ega bo'lgan fanlar majmuidir.

*V. Fanlararo tadqiqot usullari* asosan ilmiy fanlar interfeysiga qaratilgan bir

qator sintetik, integrativ usullar (turli darajadagi metodologiya elementlarining kombinatsiyasi natijasida yuzaga keladigan) majmui sifatida.

Shunday qilib, ilmiy bilimlarda har doim muayyan shartsharoitlarni hisobga olgan holda amalga oshiriladigan turli darajadagi, qo'llaniladigan sohalari, yo'nalishlari hamda turli xil usullarining murakkab, dinamik, yaxlit, bo'ysunuvchi tizimi mavjud.

Keling, ilmiy tadqiqotning turli bosqichlari va darajalarida qo'llaniladigan ba'zi usullar, texnika va vositalarni qisqacha ko'rib chiqaylik.

*Empirik tadqiqotlarning ilmiy usullaridan biri kuzatish* - vogelik hodisalarini maqsadli idrok etish (ularni tavsiflash va o'lchash bilan bog'liq), *qiyoslash* va *tajriba o'tkazish* bo'lib, bunda tadqiqot jarayonida faol interferensiya sodir bo'ladi.

*Nazariy* tadqiqotlarning *ilmiy* usullari orasida formallashtirish (rasmiylashtirish), aksiomatik va gipotetik-deduktiv usullar ko'proq ajralib turadi;

*Formallashtirish* - mazmunli bilimlarni ramziy shaklda ko'rsatish (rasmiylashtirilgan til). U noaniq tushunish ehtimolini yo'q qilish uchun fikrlarni to'g'ri ifodalash uchun yaratilgan. Rasmiylashtirishda obyektlar to'g'risidagi fikrlash belgilar (formulalar) bilan ishlash tekisligiga o'tkaziladi. Belgilar munosabatlari obyektlarning xususiyatlari va munosabatlari haqidagi bayonotlarni almashtiradi. Rasmiylashtirish ilmiy tushunchalarni aniqlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Biroq, rasmiy usul - hatto izchil amalga oshirilgan taqdirda ham - ilmiy bilimlar mantig'inining barcha muammolarini qamrab olmaydi (mantiqiy pozitivistlar umid qilgan narsa).

*Aksiomatik usul* – ba'zi bir boshlang'ich aksiomalar (postulatlar) asosida ilmiy nazariyani qurish usuli bo'lib, undan bu nazariyaning boshqa barcha fikrlari sof mantiqiy yo'l bilan, isbotlash orqali chiqariladi. Aksiomalardan teoremlarni (va umuman, ba'zi formulalarni boshqalardan) olish uchun maxsus xulosa qoidalari shakllantiriladi.

*Gipotetik-deduktiv usul* - nazariy tadqiqot usuli bo'lib, uning mohiyati o'zaro deduktiv bog'langan gipotezalar tizimini yaratishdan iborat va undan pirovard natijada empirik faktlar haqidagi bayonotlar olinadi. Shunday qilib, bu usul gipotezalardan va haqiqat qiymati noma'lum bo'lgan boshqa farazlardan xulosalar

chiqarishga (deduksiyaga) asoslanadi. Ushbu usul asosida olingan xulosa muqarrar ravishda faqat ehtimollik xususiyatga ega bo'ladi. Ilm-fanda, *umummantiqiy* usullar ham mavjud. Ular orasida biz quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

*Tahlil* - obyektni tarkibiy qismlariga real yoki aqliy bo'linishi va *sintez* - ularning bir butunga birlashishi.

